

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

3-2022

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК.ФЕРГУ

Muassis: Farg'ona davlat universiteti.

«FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК. ФерГУ» "Scientific journal of the Fergana State University" jurnali bir yilda olti marta elektron shaklda nashr etiladi.

Jurnal filologiya, kimyo hamda tarix fanlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnaldan maqola ko'chirib bosilganda, manba ko'rsatilishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 2 sentabrda 1109 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Muqova dizayni va original maket FarDU tahriri-nashriyot bo'lrimda tayyorlandi.

Tahrir hay'ati

Bosh muharrir
Mas'ul muharrir

SHERMUHAMMADOV B.SH.
ZOKIROV I.I

FARMONOV Sh. (O'zbekiston)
BEZGULOVA O.S. (Rossiya)
RASHIDOVA S. (O'zbekiston)
VALI SAVASH YYELEK (Turkiya)
ZAYNOBIDDINOV S. (O'zbekiston)

JEHAN SHAHZADAH NAYYAR (Yaponiya)
LEEDONG WOOK. (Janubiy Koreya)
A'ZAMOV A. (O'zbekiston)
KLAUS XAYNSGEN (Germaniya)
BAXODIRXONOV K. (O'zbekiston)

G'ULOMOV S.S. (O'zbekiston)
BERDISHEV A.S. (Qozog'iston)
KARIMOV N.F. (O'zbekiston)
CHESTMIR SHTUKA (Slovakiya)
TOJIBOYEV K. (O'zbekiston)

Tahririyat kengashi

QORABOYEV M. (O'zbekiston)
OTAJONOV S. (O'zbekiston)
O'RINOV A.Q. (O'zbekiston)
KARIMOV E. (O'zbekiston)
RASULOV R. (O'zbekiston)
ONARQULOV K. (O'zbekiston)
YULDASHEV G. (O'zbekiston)
XOMIDOV G'. (O'zbekiston)
DADAYEV S. (O'zbekiston)
ASQAROV I. (O'zbekiston)
IBRAGIMOV A. (O'zbekiston)
ISAGALIYEV M. (O'zbekiston)
TURDALIYEV A. (O'zbekiston)
AXMADALIYEV Y. (O'zbekiston)
YULDASHOV A. (O'zbekiston)
XOLIQOV S. (O'zbekiston)
MO'MINOV S. (O'zbekiston)
MAMAJONOV A. (O'zbekiston)

ISKANDAROVA Sh. (O'zbekiston)
SHUKUROV R. (O'zbekiston)
YULDASHEVA D. (O'zbekiston)
JO'RAYEV X. (O'zbekiston)
KASIMOV A. (O'zbekiston)
SABIRDINOV A. (O'zbekiston)
XOSHIMOVA N. (O'zbekiston)
G'OFOUROV A. (O'zbekiston)
ADHAMOV M. (O'zbekiston)
XONKELDIYEV Sh. (O'zbekiston)
EGAMBERDIYEVA T. (O'zbekiston)
ISOMIDDINOV M. (O'zbekiston)
USMONOV B. (O'zbekiston)
ASHIROV A. (O'zbekiston)
MAMATOV M. (O'zbekiston)
SIDDIQOV I. (O'zbekiston)
XAKIMOV N. (O'zbekiston)
BARATOV M. (O'zbekiston)

Muharrir: Sheraliyeva J.

Tahririyat manzili:

150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.

Tel.: (0373) 244-44-57. Mobil tel.: (+99891) 670-74-60

Sayt: www.fdu.uz. Jurnal sayti

Bosishga ruxsat etildi:

Qog'oz bichimi: - 60×84 1/8

Bosma tabog'i:

Ofset bosma: Ofset qog'oz.

Adadi: 10 nusxa

Buyurtma №

FarDU nusxa ko'paytirish bo'limida chop etildi.

Manzil: 150100, Farg'ona sh., Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.

**Farg'ona,
2022.**

X.Mamajonov	
Amir Temur hamda To'xtamishxon o'rtaсидаги дипломатик муносабатларнинг манбашунослигига доир айрим фірмалоҳазалар	113
ADABIYOTSHUNOSLIK	
X.Maxsudova, Sh.Shahobiddinova	
Ergonimlarning leksik-semantik xususiyatlari	118
A.Abduraxmonov	
Zamonaviy o'zbek nasrida rangning g'oyaviy yo'nalishni tashkillashdagi ahamiyati	122
B.To'rayeva	
Xronotop poetikasining o'ziga xos xususiyatlari	127
N.Karimova	
Abdulla Qodiriy asarlarida folklor xronotopi	134
P.Ro'ziboyeva, B.Karimov	
Abdulhamid Cho'lon hikoyalarda ayollar obrazi talqini, ayollar erki va ta'limi masalasi	138
N.Avazov	
"Padarkush"ning ta'siri va jadid dramalarining yaratilishi.....	143
Sh.Axmedova	
Omon matjon she'riyatining badiiy jihatlari.....	151
N.Soatova	
Shuhratning masal va hajviy she'r yaratish mahorati	155
Sh.Turg'unov	
Harbadoshlarning o'langa nisbatan ta'rifi xususida	162
TILSHUNOSLIK	
Sh.Iskandarova, F.Musayeva	
Muhammad Yusuf she'rlarida zamon tushunchasining o'rganilishiga doir.....	168
D.Ganiyeva	
Turli tizimdagи tillarda nisbat shakllarining sinkretikligi va polifunktionalligi.....	171
Sh.Amonturdiyeva	
Diniy matnlarning fonetik imkoniyatlari.....	176
N.Xoshimova	
Bilvosita gaplarning turli madaniyatlarda ifodasi	184
M.Hojiyeva	
Terminologik kompetentlik – bo'lajak filolog mutaxassislarni tayyorlashning асоси сифатида	187
V.Giyosova	
Bolalarga oid murojaat birliklariga doир mulohazalar	190
S.Ahmadaliyeva	
Pragmatonimlarning farqlovchi elementlari va funksiyalari haqida.....	193
H.Saipova	
Nutqning sintaktik-kompozitsion tahliliy usullari	197
MATEMATIKA	
T.Ergashev, D.Urinboyeva	
Ikkinchи tartibli ikki o'zgaruvchili gipergeometrik funksiyalar nazariyasi haqida.....	201
B.Kadirkulov, M.Jalilov	
Involutsiya qatnashgan kasr tartibli parabolik tipdagи tenglama uchun qo'yilgan teskari masala	209
N.Murolimova	
Vazn funksiyasiga ega bo'lgan riman-liuvil va atangana-baleanu kasr tartibli operatorlar qatnashgan to'lgin tenglamasi uchun chegaraviy masala	214
FIZIKA - TEXNIKA	
X.Raxmonjonov, Sh.Shuxratov	
Zamonaviy elektr jihozlarini o'qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanish	223
M.Abdullahayeva, Sh.Shuxratov	
Texnologiya ta'limida milliy hunarmandchilikni kreativ yondashuv asosida o'rganishnig pedagogik-psixologik imkoniyatlari.....	228

HARBADOSH LARNING O'LANGA NISBATAN TA'RIFI XUSUSIDA**К ВОПРОСУ ОБ ИСПОЛНИТЕЛЯХ УЛНОВ****ON THE QUESTION OF THE PERFORMERS OF ULANS****Turg'unov Sherali Dolixonovich¹****1Turg'unov Sherali Dolixonovich**

– Andijon davlat universiteti doktoranti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

Annotatsiya

Ma'lumki, o'lan janriga soha mutaxassislari tomonidan turli qarashlar bayon etilgan, ta'rif va tasniflar berilgan. Bu borada ijodkorlarning o'zлari qanday fikrdalar? O'lanlar nima maqsadda to'qilgan? Ularning uzoq muddat esda saqlanib qolishi, tinglovchilar auditoriyasini hamisha qiziqtirib kelganligining sababi nimada? Mazkur maqolada ana shu kabi savollarga javob izlanadi. Umuman, o'lan ijodkorlaringin o'lan ijodkorligi uchun ehtiyojlari, o'lanlarning paydo bo'lishidagi omillar hamda ularning o'langa nisbatan keltirgan ta'riflari xususida so'z yuritiladi va tasniflanadi.

Tadqiqotda ilmiy mushohadalar va ularning natijalariga chuquroq erishish maqsadida o'lanlarni qiyosiy-tipologik tahlil metodidan foydalanib o'rgangan holda quyidagicha: 1) an'anaviylik; 2) eranlar homiyligi; 3) gerental to'siqsizlik; 4) motivatsion xossa; 5) moddiy rag'bat; 6) ma'nnaviy rag'bat; 7) mag'lubiyat tovoni; 8) ijo reglamenti; 9) meditativ vosita tarzida tasnif etildi.

Аннотация

Известно, что жанру Улан даны различные определения, описания и классификация. Что думают по этому поводу сами создатели и исполнители? Какова цель их создания? В чем причина того, что они надолго остаются в памяти, и всегда были интересны аудитории слушателей? В данной статье представлена попытка найти ответы на эти вопросы. В целом обсуждаются и классифицируются потребности исполнителей улана в творчестве улана, факторы возникновения улана, их определения.

С целью достижения более глубоких научных наблюдений и их результатов в исследовании изучались методом сравнительно-типологического анализа следующим образом: 1) традиционность; 2) эранское покровительство;

3) управленческое неповиновение; 4) мотивационный характер;

5) материальный стимул; 6) духовное с тимул; 7) компенсация за поражение; 8) регламент исполнительства; 9) был классифицирован как медитативное средство.

Abstract

It is known that the Ulan genre has been given various definitions, descriptions and classifications. What do the creators and performers themselves think about this? What is the purpose of their creation? What is the reason that they remain in memory for a long time, and have always been of interest to the audience of listeners? This article attempts to find answers to these questions. In general, the needs of lancers in the work of lancers, the factors of the emergence of lancers, their definitions are discussed and classified.

In order to achieve deeper scientific observations and their results, the study studied the method of comparative typological analysis as follows: 1) traditionality; 2) eranian patronage; 3) administrative disobedience; 4) motivational character; 5) financial incentive; 6) spiritual stimulus; 7) compensation for defeat; 8) execution regulations; 9) has been classified as a meditative remedy.

Kalit so'zlar: o'lan, harbadosh, an'anaviylik, eranlar homiyligi, gerental to'siqsizlik, motivatsion xossa, moddiy rag'bat, ma'nnaviy rag'bat, mag'lubiyat tovoni, ijo reglamenti, meditativ vosita

Ключевые слова: улан, харбадош, традиция, покровительство иранцев, герентальный барьерь, мотивационный характер, материальный стимул, духовный стимул, пята поражения, исполнительная регуляция, медитативное средство.

Key words: lancers, kharbadosh, tradition, eranian patronage, herental barrier, motivational character, material stimulus, spiritual stimulus, heel of defeat, executive regulation, meditative means.

KIRISH

O'lan janriga olimlar tomonidan turlicha ta'rif va tasniflar berilgan bo'lib, biz bu xususda avvalgi ishlarimizda atroflichcha to'xtalib, o'z munosabatimizni bayon qilganimiz. "Bu masalada o'lan ijodkorlari va ijrochilarining o'zлari qanday fikrdalar?" degan mantiqiy savol tug'iladi. Haqiqatan, chechanlar o'lanni nima maqsadda to'qiydilar? Uni xotiralarida nega uzoq vaqt saqlab yuradilar va bundan qanday manfaat ko'radilar? Muxlislar va shogirdlar qanday paydo bo'lishadi? Harbadosh ustidan g'alaba nashidasi yoki undan mag'lubiyat alami qanday kechadi? Mana shu holatlarning

ADABIYOTSHUNOSLIK

bevosita ijodkorlar tomonidan izohlanishi, nazarimizda, o'lan janrining ichki qonuniyatlarini yanada yorqinroq oydinlashtirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Toshkent viloyat Ohangaron tumanining tog'li Ertosh qishlog'ida yashab o'tgan lymonazar oxun to'qigan bir o'larda "Oxunlikdir el ko'nglini xush aylamoq" [5.184] degan misra bor. Sodda qilib aytildi ushbu fikrda o'lan janrining ijtimoiy-estetik ahamiyati va ommaviyligi sabablari, shuning bilan bir qatorda, el ko'nglini xush aylashning katta va jiddiy mas'uliyati aks etgan. Aytaylik, xalqimizning kundalik jonli nutqida qo'llanuvchi qasam, qarg'ish, yig'i, yo'qlov, afsun, duo va boshqa paremik janrlardagi mantiqiy-hissiy yo'naliш tinglovchini shod etish, kulgusini qo'zg'ab, zavqlantirish maqsadidan yiroq. Oxunning tagdor va qochirimli, tabassum bilan yo'g'rilgan o'lchamli nutqi esa atrofidagi muxlislarida futbol ishqiboziga xos tarafkashlik va mammuniyatni o'z-o'zidan shakllantiradi. Shu boisdan, o'lanning mohiyatiga doir yana bir fakt mazmuniga e'tibor qarataylik:

*O'lanni har kim aytmas, harib aytar,
Yuragida dardi bor g'arib aytar.
G'aribning aytganiga quloq solsang,
Tov-u toshning barini terib aytar* [5.161].

Mazkur satrlarning umumiyligi ruhi mashhur folklorshunos olima M.Alaviya bir maqolasida keltirgan "Suygan qo'shiqchi bo'lar, kuygan o'lanchi bo'lar" degan matal mazmuniga muvofiq keladi [1.38]. Darhaqiqat, o'lanni to'yga kelgan har kim ayta olmaydi. Harbadoshi kim bo'lishidan qat'iy nazar, uni yengaman, deb maxsus tayyorgarlik ko'rgan, ishq dardi yoki turmush jafolaridan kuygan, yuragida dardi ko'p chechangina ayta oladi. Aytganida ham tinglovchilar auditoriyasining yosh xususiyatlari, qiziqishlari va saviyasiga moslab, xotirasidagi matnlarni terib aytadi. Zotan, oxunlar:

*O'lan qaydan chiqadi so'z bo'lmasa,
Kim yetaklab yuradi ko'z bo'lmasa?* [5.152],

– deya haqli e'tirof etganlariday, kundalik nutqimizda qo'llaniladigan minglab so'zlar ichidan keragini oniy daqiqalar ichida saralab, tanlab harbadosh fikriga hamohang va uni bosib tushuvchi javobni topa bilmoq va uni she'r o'lchamiga solib tizmoq uchun o'tkir aql va farosat talab etiladi.

O'lan o'zbek folklorining boshqa janrlari qatoridagi adabiy yodgorlik sifatida yaratuvchi oxunlar "axloqining surati, aql-idrok guvohnomasi", shuningdek, "qiziqish va tashvishlari, ong saviyasi va iztiroblarini" to'rt misrada badiiy aks ettiradi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Shu bois so'z chechanlarining bu janr tabiatiga doir qarashlarini qiyosiy va tipologik jihatdan sinchiklab o'rgangan holda quyidagi turkumlarga ajratish mumkin deb hisoblaymiz:

1) an'anavylik:

*Chiqadi ko'kirakdan ovozi go'y,
Yarashar bizni elatga ovuldan uy.
Shoirlikman oxunlik bizga kasim,
To'y bo'lsa doim borib yuramiz siy* [5. 306].

*O'langa shay bo'lsangiz keling berroq,
O'lan aytmoq rasm bo'p eldan qolgan.* [5. 147].
Burungilar aytishuvni o'lan debdi,
O'lan bilsang yonboshla yonimga kep [5. 110].

O'lan ijrochilarining nazarida, o'ziga munosib harbadosh bilan aytishuv – to'yning eng qizg'in bosqichi. Unda "burungilar" belgilab ketgan ijro tartibi va odobi an'analaridan chetga chiqish taqilangan. Shuning barobarida, janrning an'anavy turg'un usul va shakllariga amal qilgan holda mantiqiy-hissiy yangiliklarni kiritib, tajdid (novatorlik) uchun yo'l ochish mumkin. Ko'p yillik tajribaga ega bo'lgan oxunlar tajdidi har to'yda deyarli bir xil o'lanlarni eshitishga o'rganib qolgan tinglovchilar hayratini oshirgan, solmaquloq shogirdlar havasini keltirgan.

*Payg'ambarning bir qizin Ali olgan,
To'yma-to'y o'lan aytmoq shundan qolgan* [5.47].

2) eranlar homiyligi:

Kel, ikkimiz birlashib aytishaylik,
O'lanchini qo'llaguvchi pirday bo'lib [5.123].

Yana bir misol:

O'lan aytib, to'yarni gul qilasiz,
Er Xizmi o'zingizga pir qilasiz. [5.140].

Ilm ahliga ko'pdan buyon ayonki, so'zga chechanlik, badihago'ylik va hozirjavoblik – ilohiy in'om. U hammaga ham berilmaydi. Agar "o'lanchini qo'llaguvchi pir" va ustozlar arvohi madad bermasa, zafarli javobingga ilhaq bo'lib turgan hamqishloq va muxlislaring oldida yosh bir yigit yoki qizdan mag'lub bo'lishing, bunday davraga qayta yo'l topa olmasliging hech gap emas. "O'lan aytsang beri kel, aynam-ov" nomli 26-jildning 353-betida tuzuvchilar tomonidan Xizr obraziga quyidagicha izoh berilgan: "O'zbek mifologiyasida odamlarga yaxshilik qiladigan, ezgu homiy sifatida ularning mushkullarni oson qilib, qut-baraka va mo'l hosil baxsh etadigan an'anaviy asotiriy personajlardan biri Xizrdir. U ajdodlar ruhining timsoli bo'lib, u qiyin ahvolda qolgan kishilarga madad beruvchi afsonaviy homiy, donishmand oqsoqol va obihayot chashmasining suvidan ichganligi uchun doimiy barhayotlikka erishgan ezgu kuch hisoblanadi. Dehqonlarning mifologik tasavvurlariga ko'ra, Xizr oq soqolli, yashil to'nli mo'ysafid. Har yili ko'klamgi ekish mavsumida yoki bug'doy o'rilib, xirmon ko'tarilayotgan paytda Xizr qari chol, otliq suvoriy yoki yo'lovchi ko'rinishida paydo bo'lib, dehqon dalasiga yoki xirmonga nazar tashlasa, hosil barakali bo'ladi, deb tasavvur qiladilar. O'ng qo'lining bosh barmog'i suyaksiz bo'lishi, nogahon paydo bo'lib, bir zumda ko'zdan g'oyib bo'lish xususiyatiga egaligi, uzoq umr ko'rish, yashillik va suv manbalari bilan bog'liqlik, ezgu homiy sifatida odamlarga madadkor bo'lish Xizrga xos belgilar sanaladi. Ertak va dostonlarda bu mifik personaj epik qahramonning g'ayrioddiy tug'ilishini avvaldan bashorat qiluvchi, qahramonga ism qo'yuvchi, muayyan epik shartni bajarishni o'z zimmasiga olgan qahramonga yordam beruvchi, ularga sehrli buyumlar hadya etuvchi afsonaviy homiy obraz sifatida gavdalanadi".

3) gerental to'siqsizlik:

Yetmish yetti yoshda aytdim shu o'lanni,
Gunohim to'kilsin, deb tutday bo'lib. [5B.252].

Yoki yana bir misol:

Hadding sig'sa, qani, kelib o'lan boshla,
Bu qishloqning manman degan qari-yoshi. [5.161].

Ma'lumki, gerentalogiya – tibbiyot ilmining inson organizmiga xos biologik qarish jarayonini o'rjanuvchi sohasi. Odatda, keksalikni bo'yniga ola boshlagan odam avvalgi bir qator zavqli mashg'ulotlaridan o'zini sekin-asta tiya boshlaydi. Ammo qizigandan qizib borayotgan o'lan aytishuvining ohanrabosi bu cheklovni tan olmaydi. Ilgari o'lan aytib yurgan etmis yoki sakson yoshli chol yoki kampir o'rni kelganida keksaligini unutib, xotirasida saqlangan qochirimli bandlarni qanday aytib yuborganini bilmay qoladi.

4) gender tenglik:

Qizini berarmikin, debsovchi qo'ysam,
Oldimga talqon qo'ydi tuz aralash. [5.252].

Yoki yana bir misol:

Oxirzamon bo'lganning bir belgisi,
Yigit qolib o'lanni qiz boshlaydi. [5.250].

O'lan, aytib o'tilganidek, tarixan nomad (chorvachilik bilan shug'ullanuvchi to'liq yoki yarim ko'chmanchi) aholining turmush tarziga moslashgan janr. Bunday xo'jalik yuritish tizimida xotin-qizlarning chodraga o'rani, darvozadan hatlab tashqariga chiqmasligi yoki otinoyiga qatnab savod chiqarishi va diniy ta'lif olishi uchun imkon bo'lgagan. Ular paranjisiz holda ot choptirib, yaylovlarda qo'ttonni boshqarish va chorva mahsulotlarini tayyorlash bilan mashg'ul bo'lganlar. Xat tanimagan odamlarning og'zaki nutqi ta'sirchan bo'lgan. Ayniqsa, so'zamol cho'pon qizlar ustozlaridan chechanlik sirlarini o'rganganlar. Bir manbada yoziladiki, otda Farg'ona vodiysisidan tog' oshib Toshkentga kelayotgan savdogar yigitlar yo'lda uchragan cho'pon qizga "Bu tog'ning yoshi nechada ekan-a", -deya gap otishibdi. Shunda cho'pon qiz:

"Iye, mana bu kishini,

ADABIYOTSHUNOSLIK

*Xudoyimning ishini,
Qaydan bilay yoshini,
Ochib ko'ring tishini",
deb javob qaytargan ekan [2.118].*

5) motivatsion xossa:

Aytmayin, deb bir xayol qilib edim, yor-yor,
Nosvoydayin o'lanning xumori bor, yor-yor. [5.268]
Yoki yana bir misol:
Besh-olti ovuz o'lanni bosib aytgin,

Qobirg'asi qizlarning shiqildasin. [5.268]

Adabiyotshunoslikka oid lug'atlardan ma'lumki, motivatsiya tushunchasi biron bir hodisaning yangi bir adabiy voqelikning yuzaga chiqishi uchun sabab bo'lishi, turki berishini anglatadi. Yuqorida to'rt misra mazmuniga e'tibor bering: o'lan aytishuvining nosvoy singari xumori bo'lgani uchun ham o'zini chetda tiyib turgan odam ijroga qanday qilib aralashib ketganini bilmay qoladi. Yoki to'yga kelgan qizlarning qovurg'alari shiqillashini olaylik. Qovurg'alar qachon shiqillashi mumkin? Ilgari hech qaysi to'ya eshitilmagan juda kulgili o'lan aytilganida. Demak, u qizlarning harakatga kelib qotib-qotib kulishlari qovurg'alarining shiqillashiga sababdir. Fikrimizning dalili uchun qo'shimcha ravishda quyidagi parchalarni ham keltirib o'tishni ma'ql ko'rdik:

Aytgan bilan o'laningni, haripdoshim,

Qizirmidi to'y o'laning qiz bo'lmasa? [5.152]

Yana bir misol:

Aytmayin, deb bir xayol qilib edim,
Qarasam, sen turibsan ko'zing suzib. [5.139]

6) moddiy rag'bat:

Ikkov-ikkov o'lan ayt, jon bir qizlar,

Kuyov tomon qudalar tanga tashlar. [5.258]

Yoki yana bir misol:

*O'lan aytsin desang bo'g'zim moylab qo'y,
Belbog'imni dasturxon qip joylab qo'y.* [5.145]

Hozir to'yma-to'y yuruvchi xonandalar singari mohir o'lanchilar ham moddiy rag'batsiz uzoq-uzoqlardagi to'ylarga ham borib, vaqtini va iste'dodini behudaga sarflamaganlar. Keksa axborotchilarining ma'lumotiga ko'ra, davra markaziga yoyilgan erkak oxunning belbog'i yoki xotin-qiz o'lanchining ro'moli tun oqquncha ishqibozlar va to'y egalari tomonidan tashlangan pulga to'lgan. Ba'zi boylar g'olib chechanning otiga qo'y yoki sarkani ham yuklab berganlar[2.78].

*Mening bergen fotiham zoye ketmas,
Yil aylanmay bo'lasiz o'lanchi boy.* [5.43]

7) ma'naviy rag'bat:

*Ushbu to'ya qizlarni yengib chiqsam,
Quramaning oxuni deydi meni.* [5.143]

Yoki boshqa misol:

Ko'ngiling rostakami menda bo'lsa,

Ko'taray ro'molimni, bir qarab ol. [5.21].

To'yni qizdirib, to'plangan odamlar olqishiga sazovor bo'lgan o'lanchi o'sha kuniyoq xuddi g'olib sportchi yoki zo'r qo'shiqni aytgan xonanda kabi og'izga tushgan, uning dovrug'i olis-olis qishloqlarga borib yetgan, ashaddiy muxlislari bo'lajak to'y kunini uning bo'sh vaqtiga qarab belgilashgan. Axborotchi U.Mirzaliyevning yozishicha, Ohangaron tumanining Qamchiq dovoni yaqinidagi eng chekka Saridala qishlog'idan kelinni uzatib olib ketishga kelgan beshariqliklar safida so'zga chechan o'lanchilar ham bo'lgan. "O'sha paytning udumi bo'yicha quyov navkarlari bilan qiz xonadoniga shom paytida kelishgan. Rasm-rusumlardan so'ng qizlar va yigitlar o'rtasida o'lan aytish musobaqasi boshlangan. Bu aytishuvda vodiylilik yigitlar ustun kela boshlashgan. Shunda qizning otasi va akalari Ertoshdan Marahim va Dadan bobolarimizni olib kelish uchun chopar yuborishgan. Ular tezlik bilan Saridalaga – to'yxonaga etib borib, qizlarning kiyimida qizlar qatoriga o'tirib, navbat bilan kuyovlarga qarata o'lanni aytishuvlarini davom ettiraverishgan. Saridalada tong otguncha qiz bazmi, o'lan aytishuvi bo'lib, Farg'onadan kelgan kuyov navkarlari yengilganligini tan

olishgan. Qizlar tarafga g'oliblikni olib bergen ertoshlik Marahim va Dadan ismli yigitlar qizbolacha kiyimlarini yechishgach, farg'onaliqlar qoyil qolishib, rosa kulishgan ekan" [4.55]. O'lanchilikdagi ma'naviy rag'batning ikkinchi jihatni shundan iborat bo'lganki, chechan yigit yoki qizga zimdan oshiqlar soni ortib borgan.

8) mag'lubiyat tovoni:

O'lan topolmay qolsang, aripdoshim,
Bir o'ptirib qo'yaver oq tomoqdan. [5.262]

Yana bir misol:

O', attang-a, yigitchilik o'tdi bizdan,
Ketmaydi qiz suygisi ko'nglimizdan.
O'lanni guvillatib aytolmadik,
Oxunchilik kelmadi qo'limizdan. [5.134]

Aytishuv yakunida mag'lubiyatni tan olmaslik imkonsiz bo'lgan. Negaki, atrofni ko'zi bilan ko'rib, qulog'i bilan eshitib turgan ishqibozlar o'ragan. Qolaversa, o'jarlik qilib, aytishuvni davom ettirishga urinilsa, g'olib chechan shu harakatning o'zini ham badihago'lyik bilan o'tkir yumorga aylantirilgan misralar vositasida ruhiy-ma'naviy zarba bergen. Zotan, kimningdir o'lanchi qizi yoki xotiniga "O'lan topolmay qolsang... Bir o'ptirib qo'yaver oq tomoqdan", – deyishning o'zi bo'lmaydi. Bu mag'lubiyat evaziga so'ralgan masxaraomuz tovondir.

9) Ijro reglamenti:

Qisqasi bor o'lanning, uzuni bor,
Bir boshlasam tonggacha tinimayman. [5.157]

Yoki yana bir misol:

Oxun qizning o'lani ado bo'pti,

Aytasi yangasiga "ketaman", deb. [5.299]

Ko'plab keksa axborotchilarning ma'lum qilishlaricha, to'y egasi qishloqdoshlari chorva mollarini qo'rasiga qamab, taranib, kiyinib kelganlardan so'ng "qirqinchi" deb atalgan (kerosin quyiladigan idishining aylanasi 40 sm bo'lgan) chiroqlarni qatorasiga yoqib, o'rta ga kichikroq dasturxonni yozib (unga yeguliklar qo'ymasdan), turmushga uzatilayotgan qizini va uning yoniga to'plangan dugonalarini taklif qilgan. Shundan so'ng qarama-qarshi tomonga yigitlar yig'ilishgan. Demak, o'lan aytishuvi namozshom payti boshlanib, tun yarmigacha, ba'zan tonggacha davom etgan.

10) meditativ vosita:

Bu to'yga sen kelmasang, kelmas edim,
O'lan aytib kalishni bermas edim. [5.25]

Yana bir misol:

Ovulingning qizlari yomon ekan,
Tor kovushni talashib to'ydan qoldi. [5.332]

To'y egasi tomonidan dasturxon o'rtasiga qo'yib ketilgan o'ng poy yangi kavush tomonlar o'rtasida go'yoki mediator vazifasini o'tagan. Bir necha to'ylarda g'olib kelib, tanilib qolgan oxun yigit o'z belbog'ini yechib, dasturxon ustiga sovrin uchun yoygach, kavushni qo'liga olib, "bismillo"dan boshlanuvchi bir necha o'lantarini aytib, o'zi mo'ljallagan o'lanchi qizning qo'liga javob aytishi uchun bergen. Harbadoshlarning galma-gal aytishuvi shu tariqa qizigandan qizib borgan.

XULOSA

- Yuqorida bayon etilgan kuzatishlarimizdan ma'lum bo'ladiki, chechanlar ijro etgan matnning mazmuni, shakli, usuli, vaqt va chegarasi haqidagi sodda va xalqona e'tiroflari tadqiqotchi olimlarning o'lan janriga doir ilmiy-nazariy qarashlarini yanada boyitish uchun xizmat qiladi. Demak, ularni e'tibordan chetda qoldirmaslik lozim;

- o'lan ijodkorlari va ijrochilarining yuqorida sanab o'tilgan dalillari mazkur janrning g'oyaviy-badiiy xususiyatlarini belgilaydigan o'ziga xos mezon hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Alaviya M. O'zbek xalq marosim qo'shiqlari. – Toshkent: Fan, 1974.(Alaviya M. Uzbek folk ritual songs. - Tashkent: Fan, 1974.)

ADABIYOTSHUNOSLIK

2. Yormatov I. Yuqori Ohangaronning tabiatи, tarixи va madaniyati (tabiiy-geografik va tarixiy-etnografik ocherk). –Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2008.– B.118.(Yormatov I. Nature, history and culture of Upper Ohangaron (natural-geographic and historical-ethnographic essay). -Tashkent: Publishing House of the National Library of Uzbekistan named after Alisher Navoi, 2008.- P.118.)
3. Imomnazarova Sh. O'lan janri poetikasi (o'ziga xos xususiyatlari, genezisi va badiiyati). – Toshkent: Firdavshoh, 2021. –B.36.(Imomnazarova Sh. Olan genre poetics (specific features, genesis and artistry). - Tashkent: Firdavshah, 2021. - P.36.)
4. Mirzaliev U. Tangriga yaqin maskan. –Toshkent: Navro'z nashriyoti. 2018.–B.55 (Mirzaliev U. A place close to God. -Tashkent: Navruz publishing house. 2018.–P.55)
5. "O'lan aystsang beri kel, aynam-ov" (o'lanlar). // O'zbek xalq ijodi yodgorliklari. J.26. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2020. ("O'lan aystsang beri kel, aynam-ov" (Olans). // Monuments of Uzbek folk art. V.26. - Tashkent: Publishing house named after Gafur Gulam, 2020.)

(Taqrizchi: A.Sabirdinov - filologiya fanlari doktori)